

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI:  
AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA  
YONDASHUV”**

**mavzusidagi**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari**

**(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi  
munosabati bilan tashkil etilgan)**

*2021-yil 22-may*

**TOSHKENT – 2021**

|     |                   |                                                                                                                       |         |
|-----|-------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 40. | Кулмаматов Д.     | Названия хивинских и бухарских ханских канцелярских должностных лиц в русских письменных деловых памятниках XVII века | 314-329 |
| 41. | Hakimova M.       | Sinesteziya va uning tildagi voqelanishi                                                                              | 330-337 |
| 42. | Rahmatov M.       | Alisher Navoiy g'azallarida nutq subyekting ifodalanishi                                                              | 338-343 |
| 43. | Дуйсебаева Д.     | Қарым-қатынас мәдениетінде жазудың рөлі                                                                               | 343-348 |
| 44. | Saidxonov M.      | Til amaliyotida "oila tili" ning o'rni                                                                                | 348-354 |
| 45. | Latipov M.        | Ishoqxon ibratning tilshunoslik faoliyati                                                                             | 355-359 |
| 46. | Sobirova B.       | Символико-семантическая парадигма и концептуальное значение красного цвета                                            | 359-364 |
| 47. | Allambergenova M. | Qadimgi turkiy yozma manbalarda diniy qarashlarni ifodalovchi so'zlar                                                 | 365-368 |
| 48. | Alimardanov E.    | Xorazm shevalaridagi birlamchi cho'ziq unilarning o'rganilishiga doir                                                 | 368-373 |
| 49. | Azadova B.        | "Devonu lug'otit turk"da fe'l kategoriyalari tavsifi                                                                  | 373-376 |
| 50. | Alimbekova V.     | Insonlarning psixologik-ruhiy hissiyotlari, harakat-holatlarini ifodalovchi leksemalar                                | 376-382 |
| 51. | Ishayev J.        | Qahramonlik eposlaridagi arabcha-forscha leksika                                                                      | 383-386 |
| 52. | Qodirova N.       | Maqollarda nutqiy antonimiyaning vujudga kelishi                                                                      | 386-390 |

1. Кляшторный, С.Г. Мифологические сюжеты в древне тюркских памятниках / С.Г.Кляшторный // Тюркологический сборник 1977. –М.: Наука, 1981. – С. 117-138.

2. Abdurahmonov.G', Rustamov.A, Qadimgi turkiy til. – T.: O'qituvchi. 1982. -B. 71-130.

3. Azimov. I., Rahmatov.M. Qadimgi turkiy til. –T.: TDPU. 2005. – B. 67-80.

4. Mahmudov N. Yozuv tarixidan qisqacha lug'at-ma'lumotnoma. – T.: 1990.

5. Rahmonov N., Sodiqov Q. Qadimgi turkiy til. – T.: 2009;

6. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. Birinchi qism. ([kh-davron.uz](http://kh-davron.uz))

## **XORAZM SHEVALARIDAGI BIRLAMCHI CHO'ZIQ UNLILARNING O'RGANILISHIGA DOIR**

Elyor Alimardanov

o'qituvchi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.

### *Annotatsiy*

*O'g'uz shevalarining turkman tili bilan qiyosiy o'rganilishi jarayonida Xorazm shevalaridagi birlamchi cho'ziq unlilarning kimlar tomonidan tadqiq etilganligini yoritish zaruriyati tug'ildi. Maqolada darslik va qo'llanmalarda yoritilishi va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilishi masalalari aks ettirildi.*

*Kalit so'zlar: o'g'uz lahjasi, turkey tillar, unlilarning birlamchi cho'ziqligi, qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi, qipchoq lahjasi.*

### *Annotation*

*In the process of comparative study of Oghuz dialects with the Turkmen language, it became necessary to clarify who studied the primary long vowels in Khorezm dialects. The article covers issues covered in textbooks and manuals and studied by foreign scholars.*

*Keywords: Oghuz dialect, Turkish languages, primary length of vowels, Qarluq-Chigil-Uyghur dialect, Kipchak dialect.*

O'zbek tili aksar turkiy tillar kabi ko'pshevaliligi bilan o'ziga xos xarakterga egadir. Odatiy turkiy tillar tasnifidagi qipchoq, o'g'uz, qarluq guruh tillarining umumiy xususiyatlari ayni o'zbek tilida mavjuddir. Shunga ko'ra, o'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan [Ashirboyev, 2013: 4]. Bular: qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi.

O'zbek tilining o'g'uz lahjasi tarkibiga kiruvchi xorazm shevasi *xorazmcha*, *xorazm o'zbekchasi*, *xorazm o'g'uzchasi*, *xorazm turkchasi* nomlari bilan atalib, fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari bilan turkiy tillarning o'g'uz guruhi tillariga yaqin turadi [Ekar, 2005: 115]. Turkolog olim G.Dyorfer xorazm shevasi va Xuroson turkchasi o'rtasida umumiy jihatlarni ko'p ekanligini qayd etadi [Dyorfer, 1969: 22]. Shu jihatdan o'zbek tilining qarluq va qipchoq lahjalarida uchramaydigan birlamchi cho'ziq unlilarning o'g'uz lahjasi, shu jumladan, xorazm shevasida mavjud ekanligi diqqatga sazovordir.

Turkiy tillarda unlilar miqdor belgisiga ko'ra cho'ziq va qisqa unlilarga bo'linadi [Абдупасулов Ё. 2008, 24]. Cho'ziq unlilarning asosan, ikki xil ko'rinishi mavjud ekanligi adabiyotlarda qayd etiladi: birlamchi va ikkilamchi [Rahmonov, Sodiqov. 2009, 71].

Birlamchi cho'ziq unlilar ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lib, qisqa talaffuz qilinuvchi varianti bilan alohida leksemalarni ifodalaydi:

|                                                          |                                                     |
|----------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|
| <i>at</i> ( <i>ot</i> , <i>hayvon</i> , <i>ot fe'l</i> ) | <i>a:t</i> ( <i>ot</i> ),                           |
| <i>ot</i> ( <i>maysa</i> )                               | <i>o:t</i> ( <i>olov</i> )                          |
| <i>it</i> ( <i>kuchuk</i> )                              | <i>i:t</i> ( <i>itarmoq</i> , <i>ergashtirmoq</i> ) |
| <i>gyz</i> ( <i>qizimoq</i> )                            | <i>gy:z</i> ( <i>qiz</i> )                          |
| <i>gurt</i> ( <i>qurt</i> )                              | <i>gu:rt</i> ( <i>qurut</i> ),                      |
| <i>sūri</i> ( <i>surov</i> , <i>to'p</i> )               | <i>sū:ri</i> ( <i>cho'ziq</i> )                     |

Ikkilamchi cho'ziqlik tovush o'zgarishi, ko'proq, so'zdagi undoshning tushishi natijasida hosil bo'ladi: **bigiz** > **bi:z**, **šahar** > **ša:r**, **oğul** > **u:l** [Rahmonov, Sodiqov. 2009, 71]. Kontekst sharoitidan kelib chiqqan holda yuzaga chiqadigan cho'ziqlikning bu turi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davri mahsuli hisoblanadi.

Fonologik cho'ziqlik [Жамолхонов, 2009: 81] deb ham nomlanuvchi birlamchi cho'ziqlik masalasi turkiy tillarda munozarali

mavzulardan biri bo'lib, O'rta asr tilshunoslari Mahmud Koshg'ariy, To'le' Hiraviy, Mirza Mahdiyxon va boshqalar cho'ziq a, ba'zan, cho'ziq i unlisi haqida yozadilar. Mahmud Koshg'ariy a: unlili so'zlarni ikki alif bilan keltirgan [Аширбоев, Азимов. 2012: 12].

Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning unli tovushlarini tavsiflab shunday yozadi: "Unlilarni cho'ziq yoki qisqartirib talaffuz qilish so'zga zarar bermaydi" [Кошгарий, I, 385]. "Devon"ning boshqa bir joyida yana ham aniqroq qilib yozadi: *yīa:č* deyish ham mumkin, *yīač* deyish ham mumkin [Махмуд Кошгарий, II, 45].

Turkiy tillarning dastlabki davrlarida so'zlarning birinchi bo'g'inida unlilar cho'ziq talaffuz qilingan. Bunday cho'ziqlik boshqa tovush ta'sirida yuz bergan emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiati bilan bog'liqdir. Unlilarning bunday cho'ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o'zbek shevalarida saqlanib qolgan: **tu:š, a:d, ba:š, dü:z, du:rī** va boshqalar. Aslida bu kabi unlilar cho'ziqligi urg'uning dastlabki bo'g'iniga tushishi xususiyati bilan bog'langan [Ashirboyev, 2013:12].

O'zbek tilining xorazm shevasida birlamchi cho'ziq unlilarning mavjudligi borasida dastlab g'arb turkolog olimi Budenz ma'lumot beradi [Budenz, 1865: 316]. J.Budenz "Xiva tatarchasi"\*<sup>4</sup> nomli tadqiqot ishida o'zbekchada cho'ziq unlilar mavjud ekanligini qayd etib, quyidagi misollarni keltiradi:

a: ka:n, a:t (ism);

ī: kī:z (qiz);

o: bo:r;

ō: bō:rī (bo'ri);

u: tu:z (tuz);

ū: tū:š (tush).

Keyingi davr tadqiqotlarida, umuman, o'zbek tilida uchraydigan cho'ziq unlilar borasida V.Grunberx [Grunberx, 1902], L.Lageti [Lageti, 1938: 177-204], V.Polivanov [Поливанов, 1933] tadqiqotlarida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Xorazm shevasi, uning fonetikasi, shuning bilan birga leksikasi, grammatikasini keng ko'lamda o'rgangan olim F.Abdullayev "O'zbek tilining xorazm shevalari" monografiyasida shevadagi cho'ziqliklar

\* Xiva turkchasi. Budenz tatarcha termini bilan umumiy turk tilini nazarda tutadi.

borasida quyidagilarni qayd etadi: "O'g'uz gruppasi shevalarida oddiy cho'ziqlikka ega bo'lgan unli tovushlardan tashqari, yana cho'ziq unlilar bor. Deyarli har bir qisqa yoki oddiy cho'ziqlikdagi unli o'zining cho'ziq variantiga egadir: a – a:, ä – ä:, i – i:, ü – ü:, ö – ö:, o – o:, ī – ī:" [Абдуллаев, 1961:131].

Olim xorazm shevalaridagi cho'ziq unlilarni quyidagicha tartiblashtiradi:

Otni otdan farq qiladigan cho'ziq unlilar: qaš – qa:š, at – a:t, ala – a:la, ara – a:ra, san – sa:n, muš – mu:š, iš – i:š, sap – sa:p, duz – du:z.

Otni fe'ldan farqlaydigan cho'ziq unlilar: aǵ – a:ǵ, jar – ja:r, tut – tu:t, buz – bu:z, ač – a:č, ič – i:č, diz – di:z, duš – du:š, jan – ja:n, oj – o:j, öt – ö:t, aq – a:q, qan – qa:n, qiz – qī:z, saǵ – sa:ǵ.

Turk turkolog olimi Talat Tekin o'zining "Turkiy tillarda birlamchi cho'ziq unlilar" mavzusidagi tadqiqotida o'zbek tilidagi birlamchi cho'ziqliklarni xorazm shevasi misolida keltirib o'tadi [Tekin, 1995: 50-53]. Olim xorazm shevasidagi birlamchi cho'ziqlik turkman tili bilan ayni bo'lib, ba'zi farqli jihatlari sifatida turli namunalarni qayd etadi. Asosan, a:, ī:, o:, u:, e:, i:, ö:, ü: unlilarining cho'ziqliklarini keltiradi. Aytish joizki, o'g'uz turkum tillariga, jumladan turkman tilida faol qo'llaniluvchi e tovushi xorazm shevasida aksar o'rinlarda ä tovushiga o'tadi [Alimardanov, 2020, 37] va asosan, cho'ziq talaffuz qilinadi. Shu jihatdan olim T. Tekin ishlarida ba'zi xatoliklar ko'zga tashlanadi. Ya'ni, xorazm shevasidagi cho'ziq ä: va e: tovushlarini umumlashtirib bitta qilib beradi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi turkiy til tabiatiga xos birlamchi cho'ziq unlilar o'zbek tilining xorazm shevasida hozirgacha yaxshigina saqlangan. Ushbuni keng ko'lamli tadqiqot sifatida o'rganish, tadqiq etish tilshunoslik oldida turgan muhim mavzulardandir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2014.
2. Alimardanov E. O'zbek tilining o'g'uz turkum tillari bilan qiyosiy o'rganish (mag.diss.). Toshkent, 2020.
3. Budenz J. Khivai Tatárság. Nyolvtud, 1865.

4. Gerhard Dyorfer (Gerhard Doerfer). İran'da Türk Dilleri // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten, Ankara: 1969, Türk Dil Kurumu Yayınları.
5. Grunberx V. Forstudier til turkisklydhistorie, Kopenhagen, 1902.
6. Lageti L. "Les voyelles longues en turc". 1938.
7. Suyar Ekar (Süer Eker). Özbekistan'da oğuzca bir diyalekt güney harezmi-oğuzcası // Hacettepe Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları (HÜTAD) Sayı 5, 2005, 113-128.  
<https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/328327>
8. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. Toshkent, 2009.
9. Talat T. Türk dillerinde birincil uzun ünlülerin. Ankara, 1995.
10. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг киёсий-тарихий грамматикаси. Тошкент, 2008.
11. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг хоразм шевалари. Тошкент, 1961.
12. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 2012.
13. Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Тошкент: "Фан", 2009.
14. Махмуд Кошғарий. "Девони луғутит турк". Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. I-II томлар. Тошкент, 1960-1963.
15. Поливанов Е.Д. Узбекский диалектология и узбекский литературный язык. Ташкент, 1933.